

Muxbir1 telegram kanalida e'lon qilingan "Fikrnoma: "Ixtisoslashtirilgan maktablar to'g'risidagi postingizga yana bir ilova. Qashqadaryoda ham shu rahbarlikka 40 yoshdan oshmagan, chet tilini biladigan ustozlar chaqirilib suhbat qilindi." nomli xabarga munosabat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmoniga asosan Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimida 168 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar tashkil etildi.

Mazkur maktablarga rahbar kadrlarni ishga qabul qilishda nomzodning salohiyati va kerakli malakalari o'rganildi hamda suhbat jarayonlari tashkil etildi. Mazkur jarayonidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar maktab direktorligiga tayinlandi.

Barcha jarayonlar shaffof tarzda o'tkazildi, suhbat jarayonlari kuzatuv kameralariga yozib olingan.

Saralab olingan maktab direktori orasida ko'plab yosh rahbar kadrlar mavjud va ular 3 oylik sinov muddati asosida ishga qabul qilindi.